

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Toshkent viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 yanvar holatiga 2898,7 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 37,4 ming kishiga yoki 1,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1427,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 49,2 %), qishloq aholisi soni 1471,2 ming kishini (50,8 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **37,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **59,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **16,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **25,1 mingta nikoh** va **3,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Toshkent viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi


(2018-2019 yillar 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Viloyat aholisiga nisbatan ulushi
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2861,2</b>	<b>2898,7</b>	<b>101,3</b>	<b>100</b>
Nurafshon sh	47,7	48,3	101,3	1,7
Olmalik sh	127,5	129	101,2	4,5
Angren sh	183,6	185,9	101,3	6,4
Bekobod sh	93	94,3	101,4	3,3
Chirchiq sh	154,6	155,9	100,8	5,4
Ohangaron sh	36,5	37	101,4	1,3
Yangiyo'l sh	59,3	59,6	100,5	2,1
Oqqo'rg'on tum.	102	103,4	101,4	3,6
Ohangaron	93	94,3	101,4	3,3
Bekobod	152,5	154,9	101,6	5,3
Bo'stonliq	165,6	167,2	101	5,8
Bo'ka	121,6	123,6	101,6	4,3
Quyichirchiq	104,9	106,1	101,1	3,7
Zangiota	193	194,9	101	6,7
Yuqorichirchiq	131,1	132,9	101,4	4,6
Qibray	195,1	197,6	101,3	6,8
Parkent	149,4	152	101,7	5,2
Piskent	98	99,2	101,2	3,4
O'rtachirchiq	144,4	146,7	101,6	5,1
Chinoz	129,6	131,5	101,5	4,5
Yangiyo'l	203,4	206,8	101,7	7,1
Toshkent	175,4	177,6	101,3	6,1

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 206,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 197,6 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 6,8 %ni), aksincha eng kam aholi soni Oxangaron shahrida 37 ming kishi (1,3 %) va Nurafshon shahrida 48,3 ming kishini (1,7 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Yangiyo'l va Parkent tumanlarida 1,7%ni, O'rtachirchiq, Bo'ka va Bekobod tumanlarida 1,6 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiyo'l va Chirchiq shaharlarida mos ravishda 0,5 va 0,8 %ni tashkil etadi.

## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 yanvar holatiga, viloyatga nisbatan ulush)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Yangiyo'l tumanida 205,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,1 %ni) va Qibray tumanida 196,9 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Ohangaron shahrida 36,8 ming kishi (1,3 %) va Nurafshon shahrida 48,2 ming kishini (1,7 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Parkent tumanida 1,8 %ni, Bo'ka tumanida 1,7 %ni, O'rtachirchiq va Yangiyo'l tumanlarida 1,6 %ni, Bekobod tumanida 1,5%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Yangiyo'l shahrida 0,6%ni va Chirchiq shahrida 0,8 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 59,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 19,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bo'ka (20,1 promilledan 23,0 promillega) va Toshkent (16,8 promilledan 19,1 promillega) tumanlarida hamda Yangiyo'l (17,0 promilledan 19,2 promillega) va Ohangaron (16,2 promilledan

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni (2018 yil yanvar-dekabr)




## Toshkent viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>54794</b>	<b>59341</b>	<b>108,3</b>
Nurafshon sh.	675	757	112,1
Olmaliq sh.	2421	2507	103,6
Angren sh.	3439	3518	102,3
Bekobod sh.	1637	1633	99,8
Chirchiq sh.	2159	2380	110,2
Ohangaron sh.	588	718	122,1
Yangiyo'l sh.	1009	1141	113,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2169	2371	109,3
Ohangaron	1971	1984	100,7
Bekobod	3300	3550	107,6
Bo'stonliq	2816	3062	108,7
Bo'ka	2493	2937	117,8
Quyichirchiq	2140	2315	108,2
Zangiota	3745	4173	111,4
Yuqorichirchiq	2566	2848	111,0
Qibray	3516	3787	107,7
Parkent	3245	3571	110,0
Pskent	1854	1971	106,3
O'rtachirchiq	3076	3307	107,5
Chinoz	2792	2888	103,4
Yangiyo'l	3993	4329	108,4
Toshkent	3190	3594	112,7

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 16,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,7 promille-ni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-dekabr oylarida 5,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Bekobod (5,4 promilledan 4,7 promillega) va Ohangaron (5,4 promilledan 5,2 promillega) hamda Olmaliq shahrida (7,4 promilledan 7,0 promillega) va Yangiyo'l (8,4 promilledan 8,1 promillega) shaharlarida sezilarli darajada kamayishi kuzatildi.

### Hududlar kesimida o'lganlar soni (2018 yil yanvar-dekabr)




## Toshkent viloyati bo'yicha vafot etganlar soni, kishi

	2017yil	2018yil	O'sish sur'ati %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>16470</b>	<b>16277</b>	<b>98,8</b>
Nurafshon sh.	267	279	104,5
Olmaliq sh.	933	904	96,9
Angren sh.	1119	1087	97,1
Bekobod sh.	548	548	100,0
Chirchiq sh.	1182	1139	96,4
Ohangaron sh.	258	256	99,2
Yangiyo'l sh.	495	483	97,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	515	552	107,2
Ohangaron	511	490	95,9
Bekobod	821	728	88,7
Bo'stonliq	880	852	96,8
Bo'ka	604	598	99,0
Quyichirchiq	659	639	97,0
Zangiota	936	955	102,0
Yuqorichirchiq	854	840	98,4
Qibray	1158	1143	98,7
Parkent	732	726	99,2
Pskent	524	520	99,2
O'rtachirchiq	836	877	104,9
Chinoz	692	719	103,9
Yangiyo'l	1004	1007	100,3
Toshkent	942	935	99,3

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,7 %i o'simtalardan, 8,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 2,5 %i yuqumli va parazitari kasalliklardan hamda 7,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 53 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 5,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,1 %i yuqumli va parazitari kasalliklardan, 1,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 7,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



### 2018 yil yanvar-dekabr

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 43,0 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 4,7 ming kishiga (2017 yilning yanvar-dekabar oylarida 38,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
43,0 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 25,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari O'rtachirchiq tumanini (120,9 %) va Ohangaron shahrida (119,8 %) to'g'ri kel-moqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chinoz (121,4%), Bo'stonliq (120,0 %), Zangiota (120,1 %), tumanlariga va Chirchiq (126,3 %) shahriga to'g'ri kelmoqda.



### Toshkent viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik



	Tuzilgan nikohlar soni			Nikohdan ajralishlar soni		
	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %	2017 y	2018 y	O'sish sur'ati, %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>23721</b>	<b>25129</b>	<b>105,9</b>	<b>3620</b>	<b>3740</b>	<b>103,3</b>
Nurafshon sh.	300	355	118,3	88	78	88,6
Olmaliq sh.	1182	1295	109,6	265	228	86,0
Angren sh.	1414	1450	102,5	267	190	71,2
Bekobod sh.	817	921	112,7	164	178	108,5
Chirchiq sh.	933	1090	116,8	289	365	126,3
Ohangaron sh.	288	345	119,8	67	59	88,1
Yangiyo'l sh.	515	542	105,2	118	95	80,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	1012	982	97,0	149	140	94,0
Ohangaron	696	742	106,6	79	81	102,5
Bekobod	1385	1436	103,7	167	162	97,0
Bo'stonliq	1273	1242	97,6	150	180	120,0
Bo'ka	1164	1190	102,2	127	123	96,9
Quyichirchiq	853	899	105,4	152	176	115,8
Zangiota	1436	1591	110,8	184	221	120,1
Yuqorichirchiq	1142	1144	100,2	199	209	105,0
Qibray	1403	1606	114,5	261	312	119,5
Parkent	1591	1301	81,8	134	143	106,7
Pskent	799	898	112,4	84	78	92,9
O'rtachirchiq	1344	1625	120,9	204	172	84,3
Chinoz	1116	1254	112,4	126	153	121,4
Yangiyo'l	1701	1712	100,6	181	208	114,9
Toshkent	1357	1509	111,2	165	189	114,5

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 19,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 24,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 5,6 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 6,4 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-dekabr	2018 yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	18,7	19,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	25,1	24,8
<b>Migratsiya saldosini</b>	-6,4	-5,6

19,5 promillaga) shaharlarida sezilarli darajada o'sgan.

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Zangiota tumanida (minus 1,4 ming kishi), Bo'stonliq va Toshkent tumanlarida (minus 0,6 ming kishi) qayd etildi.

